



FAVQULODDA VAZIYATLARDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATI TASHKILLASHTIRISH CHORA - TADBIRLARI.

¹G'afurov A.H,

²Azimov I.Q,

³Abdulxayeva B.X,

⁴Rahimova Y.K.

Respublika tez tibbiy yordam markazi Andijon filiali.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7302706>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2022

Accepted: 04th November 2022

Online: 07th November 2022

KEY WORDS

Favqulodda vaziyatlar, tez tibbiy yordam xizmati, tibbiy evakuatsiya, sanitar gigienik postlar. tibbiy ta'minot.

ABSTRACT

Favqulodda vaziyatlar salbiy oqibatlarini bartaraf etish jarayonida jabrlanganlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini tashkil etish ahamiyati juda ortdi. Jabrlanuvchilarga kasalxonaga qadar tez tibbiy yordam ko'rsatish usullarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish muhim va dolzarb vazifa sanaladi.

Favquloddagi vaziyatlar bu muayyan hududda yuzaga kelgan, insonlar qurbon bo'lishiga olib keluvchi, atrof muhitga tabiiy zarar yetkazuvchi, moddiy talofatga sabab bo'luvchi halokatdir. [2] Bunday vaziyatlarda fuqarolar salomatlik muhofazasining ta'minlash vazifalari murakkab va ko'p qirrali hisoblandi.

Texnogen tushdagi halokatlarga elektr toki, termik, kimyoviy kuyishlar, energetika, radioaktiv, gidrotexnik, transport avariylar, shuningdek tabiiy tushdagi yerga yer qimirlashlari, suv toshqinlari, sel, to'fon, ko'chkilar, epidemiologik vaziyatlar kiradi. [1]

Favqulodda vaziyatlar sharoitida jabrlanganlarga imkon darajasida tez tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidagi izlanishlar 1976 yilda favqulodda vaziyatlar va halokatlar tibbiyoti butunjahon assotsiatsiyasi vujudga kelishiga olib keldi. [3]

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.

Har yili dunyo bo'ylab texnogen va tabiiy tushdagi favquloddagi vaziyatlardan 2.5 milliondan ortiq kishilar halok bo'ladi, moddiy zarar esa 40mlrd dollar tashkil qiladi. Pandemiya davrida COVID-19dan jami 1.5 milliondan ziyod insonlar qurbon bo'ldi. Yo'l harakati transport avariylari natijasida 300ming kishilar nobud bo'ladi va 8 million esa turli tan jarohatlar oladi, shuning uchun yo'l- transport jarohatlari aholi o'limining uchunchi asosiy sababidir. Yurtimizda 2021 yil davomi turli favqulodda vaziyatlarda yong'inlar soni 9917ta yuzaga kelgan, va yong'inlardan 236nafar, iz gazi zaharlanishda 115 kishi, suv havzalaridan 99nafar, yo'l transport hodisalaridan 141nafar, tog' hududlarida 8 nafar va 1336ta nafar boshqa halokatlardan aholi hayoti saqlanib qolingan. Andijon viloyatida 15458ta baxtsiz hodisalar kuzatilgan, ulardan 5722tasi Andijon shahrida sodir bo'lgan.

Tadqiqot natijalari.



Favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar bartaraf etish jarayoni markazlashgan va markazlashmagan boshqaruv tizimi asosida rejalashtiriladi. [1,2,3] Favqulodda vaziyatlar hududiga fuqarolar muhofazasi hodimlari, sanitar tibbiy xodimlar va avtotransportlarni jalb qilish, vaqtincha evakuatsiyani tashkil qilish, tez tibbiy yordam ko'rsatish, sanitar-gigienik tadbirlarni amalga oshirish markazlashmagan tarzda amalga oshiriladi. Malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish, tibbiy evakuatsiyani tashkil qilish, tez tibbiy yordam brigadalari, qo'shimcha dala hospitallari joriy qilish, tibbiy kuch va vositalarni boshqarish markazlashgan tarzda bajariladi.

Fuqarolar muhofazasi shtab tarkibiga - aloqa va tez chaqirish, tibbiy xizmat, radiatsiya himoyalash, qutqaruv avariya guruhi, yong'inga qarshi, texnik-avariyalarni tuzatish, umumtexnik va maishiy ta'minot kabilar kiradi.[1]

Tibbiy xizmat tuzilmalari - tez tibbiy xizmat brigadasi, sanitar postlari, sanitar drujinachilar otryadi shaklida tuziladi. Ular jabrlanganlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiyalash, sanitar-gigiyenik hamda epidemiyaga qarshi vazifalar amalga oshiradi.[3]

Tibbiy evakuatsiya bu yaradorlarni jarohatlanish o'chog'idan olib chiqish, tez tibbiy yordam bo'limiga va kasalxonalariga ko'chirish ga aytiladi. [2]

Ommaviy zaralanish o'chog'ida jabrlanuvchilar evakuatsiya qilish feldsher tomonidan olib chiqiladi va sanitariya transporti orqali tez tibbiy yordam bo'limiga yetkaziladi. Yaradorlarni jarohatlanish o'chog'idan tashish usullariga qo'lda, yelkada, orqada, bir yoki ikki tashuvchi yordamida, sanitariya zambili

yordamida tashiladi. Og'ir yaradorlar tibbiy-sanitariya bo'limlariga aviatsiya transport vositasi orqali yetkaziladi.

Fuqarolar hayotiga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar tez tibbiy yordam xizmati barcha bosqichlarida tezkor choralarni talab etadi. Ushbu vaziyatlar shok, koma, o'tkir qon yo'qotish, tashqi nafas yetishmovchilik, shikastlanishlar, zaharlanish va klinik o'lim kabi terminal holatlar yuzaga keladi.

Tez tibbiy yordam xizmati brigadasida 1ta shifokor, 2ta hamshira (feldsher), 1ta sanitar va 1ta haydovchi bo'lib, dori-darmonlari 50 nafardan ziyod shikastlangan bemorlarga yetishi lozim. [3] Jarohatlangan bemorlarga tez tibbiy yordam xizmati ko'rsatishga [4] : Qon ketishni to'xtatish, jarohatni bog'lash, sinishlarga shinalar qo'yish, og'riqsizlantirish, sun'iy nafas berish, zidda zaxar (antidot) yuborish, yurakni bevosita massaji, radiatsiyaga qarshi va kimyoviy vositalardan saqlanish uchun protivogaz kiydirish va boshqalar kiradi.

Muhokama

Jahon amaliyotida jabrlanganlarga kasalxonaga qadar yordam tashkil qilishning universal sxemasi qabul qilingan [1,2,3] :

Birinchi bosqich: jabrlanuvchilarga favqulodda vaziyatda fuqarolar muhofazasi hodimlari yordamida qidiruv-qutqaruv, ularni vayronalardan vaqtincha yig'ish joylariga olib chiqish, tibbiy saralash, tez tibbiy yordam ko'rsatish kiradi. Bu ishlar uchun javobgarlik favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish komissiyasi yoki shtab zimmasiga yuklanadi.

Ikkinchi bosqich: jabrlanuvchilarni favqulodda vaziyat hududidan zarur uskunalar bilan jihozlangan va malakali tibbiyot xodimlariga ega ixtisoslashtirilgan



tibbiyot muassasasida imkon qadar tez kasalxonaga yetkaziladi. Jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish ularning og'irlik darajasiga qarab tashkillashtiriladi.

Xulosa

1. Favqulodda vaziyatlar sharoitida jabrlanganlarga qutqaruv xizmatlari hokimiyat, uning favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha shtablari yoki komissiyalari tomonidan rejalashtiriladi, bundan tashqari iqtisodiyot obykti kuch va vositalari jalb qilinadi

2. Favqulodda vaziyatlar sharoitida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun tez tibbiy yordam brigadalar tuzish va bu brigadalar shu tuman va viloyatdan tashqari qo'shni tumanlar, zarurat bo'lsa bir necha viloyatdan tashkillashtiriladi.

4. Favqulodda vaziyatlar sharoitida jabrlanganlarga tez tibbiy yordamni tashkil qilish, tibbiy kuch va vositalarning tezlik bilan ta'minlash, sanitar - gigenik postlar tuzish, tibbiy evakuatsiya, kasalxonalarga gospitalizatsiya qilish bajariladi.

References:

1. R. U. Muhitdinov, N.S. Tojiboyev. Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish . 2003 y.
2. O. Xasanov. Favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi. 2006 y.
3. Y. Allayorov. Y. Tojiboyev. Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari. 2007 y.
4. D. M Sobirov. Shoshilinch holatlar. 2007 y.
5. Е. И. Чазов. Неотложные состояния и экстренная медицинская помощь. 2005 г.